



## DUNYONING QUDRATLI ARMIYALARIDA HARBIY XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18032227>

**Samatova Lola Yusupovna**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada turli mamlakatlarning qudratli deya baholangan Qurolli Kuchlarida jangovar bo'linmalarda erkaklar bilan yelkama-yelka harbiy xizmat o'tayotgan hamda jangovar vazifalarni sabot bilan bajarib, armiya rivojiga salmoqli hissasini qo'shib kelayotgan harbiy xizmatchi xotin-qizlar faoliyati qisqacha bayon etiladi. Shuningdek, ayrim davlatlar armiyalarida tashkil etilgan alohida ayollar bo'linmalari va ulardagi ayol harbiylar xizmat majburiyatlarining alohida jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatchi xotin-qizlar, harbiy ayollar bo'linmasi, "Jegertroppen", "Santyago ordeni", Rossiya, Ukraina, Yevropa, Osiyo mamlakatlari Qurolli Kuchlari.

**Саматова Лола Юсуповна**

*Независимый исследователь Узбекского государственного университета  
мировых языков*

**Аннотация:** В статье кратко описывается деятельность женщин-военнослужащих, несущих службу плечом к плечу с мужчинами в боевых частях сильнейших Вооружённых Сил различных государств, стойко выполняющих боевые задачи и вносящих значительный вклад в развитие армии. Анализируются отдельные женские подразделения, созданные в армиях некоторых стран, и особенности несения службы женщинами-военнослужащими в них.

**Ключевые слова:** женщины военнослужащие, женские военные подразделения, "Jegertroppen", "Орден Сантьяго", Вооружённые силы стран Азии, Европы, Украины, России.

**Samatova Lola Yusupovna**

*Independent Researcher of Uzbekistan State World Languages University*

**Abstract:** The article briefly describes the activities of female military personnel serving shoulder to shoulder with men in combat units of powerful Armed Forces of various countries, steadfastly performing combat missions and making a significant



*contribution to the development of the army. The article analyzes individual women's units created in the armies of some countries and the specifics of service by female military personnel in them.*

**Keywords:** *female military personnel, female military units, "Jegertroppen", "The order of Santiago", Armed Forces of Asian countries, Europe, Ukraine, Russia.*

Ayol zoti tabiatan shirin soʻz, mehribon, nozik xilqat boʻlib yaratilganiga qaramay, oʻzining shijoati, gʻayrati, irodasi bilan har qanday sohada erkaklardan qolishmasligi, hattoki jamiyatda erkaklar bilan bir safda harbiy harakatlar olib borishini, dushmanga qarshi qoʻlida qurol bilan mardonavor qarshi chiqqa olishini tarixni oʻzi koʻrsatgan.

Ammo azaldan harbiy ish anʼanaviy ravishda erkaklarni ishi hisoblanib kelingan, chunki erkaklar katta jismoniy va ruhiy barqarorlikka ega, ayollar esa ojiza deya taʼriflanib, oila qoʻrgʻoni qoʻriqchilari boʻlib hisoblanib kelingan.

Ayollarning qurolli tuzilmalardagi ishtiroki esa uzoq tarixga borib taqaladi. Hatto qadimda mil. avv. IV asrlarda Afina va Spartaning yunon qoʻshinlarida ayollar oʻz oʻrniga ega boʻlishgan. Ayollar eng qonli urushlarda vatanga boʻlgan muhabbati va oʻz ishiga sodiqligi uchun ishtirok etishgan; ulardan baʼzilari oʻz ogʻalari yoki erlari yonida turib, ayrimlari xizmatdagi moddiy ragʻbatlantirish tufayli xizmat qilishgan.

1560-yildan 1650-yilgacha Yevropa armiyalarida ayollar ilk bor rasman harbiy xizmatchi maqomini olishgan, bunda ularning davlat bilan tuzgan

shartnomalarida xizmat shartlari va oylik maoshlari aniq belgilab berilgan edi [11].

Ilgari ayollarga siyosiy va harbiy faoliyatda ishtirok etish man qilinar edi, lekin konstitutsion taqiqlar va jamoatchilik udumlariga qarshi oʻlaroq, ular ayollar armiyasiga birlashar edilar.

Armiya feminizatsiyasi gʻoyasining vatani Buyuk Britaniya hisoblanib,

1653-yilda Angliyada harbiylarning turmush oʻrtoqlari ishlagan ilk ayollar harbiy gospitali paydo boʻlgan. 1917–1919-yillarda Angliya Qurolli Kuchlari tarkibida Qirollik ayollar harbiy havo kuchlari, Qirollik Harbiy dengiz kuchlarining yordamchi korpusi hamda Avtotransport seksiyasining ayollar legioni (100 ming kishilik) tashkil topgan [1].

1895-yilda dunyoda ilk bor Kanada ayollari erkaklar bilan teng ravishda toʻlaqonli harbiy xizmatchi sifatida hech qanday cheklovlarsiz harbiy xizmatni oʻtashni boshlashgan, ularni tinchlik davrida nafaqat taʼminot xizmatlariga, balki jangovar boʻlinmalarga ham qabul qilishgan. Kanada Qurolli Kuchlari rahbariyati ushbu anʼanaga hozirgacha amal qiladi [16].

Gʻarbiy Yevropa davlatlarida ayol harbiylar Birinchi jahon urushi davrida paydo boʻlishgan. 1970-yillar boshida



ko'pgina davlatlar armiyasi ko'ngilli tarzda qabul qilish tamoyili asosida shaxsiy tarkibini butlashga o'tgan va harbiy ayollar soni salmoqli osha boshlagan.

Ikkinchi Jahon urushida ayollar asosan hamshira vazifasini bajargan bo'lsa, bugungi kunga kelib ular harbiy kasbning ko'pgina yo'nalishlarini o'zlashtirib olishgan. Masalan, ayollar orasida merganlar (snayperlar), texnik xizmat ko'rsatish xodimlari, harbiy tarjimonlar va boshqa ko'plab turdagi xizmatchilar uchraydi [2].

Aytib o'tish lozimki, so'nggi paytlarda G'arb davlatlarida armiyaga erkaklar qatori ayollarni ham jalb etish odatiy holga aylanib bormoqda. Ayollar professional harbiy bo'lish uchun to'liq va har tomonlama tayyorgarlikdan o'tishmoqda. Lekin vaqt o'tishi bilan ayollar o'z kuchi va mustaqilligini isbotlashdi va buni bugungi armiya saflarida aloqachi, tibbiyot xodimi, ish yurituvchi yoxud jangovar bo'linmalarda mutaxassis sifatida xizmat mashaqqatlarini mardonavor yengib kelayotgan ayol harbiylarda ham ko'rish mumkin [17].

1975-yilda Germaniyada xotin-qizlarga armiyada avval tibbiyot xizmatida, undan keyin harbiy orkestrlarda xizmat qilish huquqi berilgan. Yevropa Ittifoqi sudining qarori bilan 2001-yildan boshlab nemis ayollari uchun barcha qo'shin turlarida (desant qo'shinlari, dengiz floti va harbiy havo kuchlari) va harbiy yo'nalishlarda xizmat

o'tash imkoniyati berilgan. Bugungi kunda Bundesver saflarida shaxsiy tarkib umumiy sonining 8,9 % xotin-qizlar bo'lib, ular orasida ofitser unvonidagi harbiy xizmatchilar talaygina [12].

Italiyada xotin-qizlarga Qurolli Kuchlarning istalgan bo'linmalarida (dengiz floti va maxsus bo'linmalardan tashqari) xizmat qilishga ruxsat beruvchi qonun

1999-yil oxirida qabul qilingan. Quruqlikdagi qo'shinlarda italiyalik harbiy ayollarning soni mamlakat Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibi umumiy sonining 6,3 %, Harbiy dengiz kuchlarida – 3,8 %, Harbiy havo kuchlarida – 1,6 % ni tashkil etadi [16].

Shimoliy Yevropa mamlakatlarida ayollar istalgan harbiy lavozimni egallash va harbiy akademiyada ta'lim olish borasida erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lib, qonun bilan mustahkamlangan. Xotin-qizlar muddatli harbiy xizmatga ixtiyoriy asosda qabul qilinib, Norvegiyada chaqiruv yoshi 19-28, Shvetsiya va Daniyada esa 18-24 yosh etib belgilangan. Saralash jarayonida xotin-qizlar va erkaklar bir xil tibbiy ko'rik va test sinovlaridan o'tishadi.

Muddatli harbiy xizmatning dastlabki bosqichi (1 oydan 3 oygacha) sinov muddati hisoblanadi, undan keyin esa xotin-qizlar Qurolli Kuchlarda qolish istagini bildirib, xizmatni davom ettirishlari mumkin bo'ladi. Aks holda, ular harbiy xizmatdan bo'shatiladi va zaxira ro'yxatidan chiqariladi.



Ta'kidlash joizki, Shimoliy Yevropa mamlakatlari Qurolli Kuchlari saflarida xotin-qizlar erkaklarniki bilan bir xil sharoitlarda xizmat qilishadi va bir xil lavozimlarni (maxsus bo'linmalar va dengiz flotidan tashqari) egallab, jangovar operatsiyalarda va hatto o'z hududidan tashqaridagi xalqaro operatsiyalarda ham faol ishtirok etishlari mumkin [16].

Shimoliy Yevropa mamlakatlari Qurolli Kuchlarida xotin-qizlarning umumiy soni kam. Jumladan, kadr harbiy xizmatchilar orasida ularning ulushi

11 % (Norvegiya) dan 6 % gacha (Shvetsiya), muddatli harbiy xizmatchilar orasida esa taxminan 1,5 % ni tashkil etadi. Qurolli Kuchlar xizmatchilari orasida esa ayollar toifasi sezilarli darajada ko'proq – 45 % gacha.

Bugungi zamonda harbiy xizmatda ayollarning ishtirokini Norvegiya davlati o'z yutug'i deb hisoblaydi, chunki ushbu mamlakatda 1992-yilda dengiz kemasining birinchi ayol kapitani, shuningdek, BMT armiyasidagi ilk qo'mondon hamda Harbiy havo kuchlari boshlig'i lavozimida tayinlangan birinchi ayol norvegiyaliklar bo'lishgan [9].

Shu o'rinda qayd etish lozimki, xotin-qizlarni harbiy xizmatga jalb etish bo'yicha Norvegiya – dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi va mamlakat Qurolli Kuchlari umumiy sonining 11 % ni ayollar tashkil etadi.

1980-yillar o'rtalarida NATO tarkibidagi davlatlar orasida Norvegiya birinchi bo'lib ayollarga jangovar

qismlarda harbiy xizmatni o'tashga ruxsat bergan. Ammo o'sha vaqtlarda ayollar soni kam bo'lgan va maxsus bo'linmada xizmat o'tash uchun ariza bergan ayollardan hech kim saralash imtihonlaridan o'ta olmagan. 2016-yilda esa ayollar uchun majburiy harbiy xizmat joriy etilgan.

2014-yilda Norvegiya harbiy qo'mondonligining xabar berishicha, Afg'onistonda bo'lib o'tgan urushda kuchli tayyorgarlikka ega harbiy ayollarga “operativ zarurat” tug'ilgan, sababi harbiy ayollar razvedka ma'lumotlarini to'plash va Afg'oniston kabi an'anaviy hayot tarzini kechirayotgan mamlakatlarda qo'shnlarni joylashtirish vaqtida mahalliy ayollar va bolalar bilan aloqa o'rnatish imkonini berardi.

Mana shunday zaruratni hisobga olib, 2014-yilda Norvegiyada faqat ayollardan iborat bo'lgan dunyodagi yagona harbiy maxsus bo'linma – Jegertroppen (“Ovchi otryad”) maxsus jangovar otryadi tuzilgan.

Avvaliga tajriba sifatida tashkil etilgan ushbu bo'linma bugungi kunda katta yutuq sifatida tan olingan. Dastlabki yillarda 200 dan ziyod ayollar harbiy xizmatga qabul qilinish uchun murojaat etishgan, endilikda esa har yili ushbu bo'linmada ko'plab ayollar og'ir jangovar tayyorgarlikdan o'tishmoqda [3].

Jegertroppen (“Ovchi otryad”) maxsus jangovar otryadining 19 dan

27 yoshgacha bo'lgan qizlari erkaklar bilan bir xil vazifani bajarishadi.



Xususan, ular samolyotdan parashyut bilan sakrash, tundrada chang'ida uchish, o'rmonlar oralab ko'p kilometrli marsh-brosoklarda (umumiy 45 kg dan ortiq og'irlikdagi qurol hamda harbiy kiyimda) yurish, shahar sharoitlarida jangovar harakatlarni olib borish va pistirmalardan o'tish, nishonga aniq mo'ljalni olib quroldan otish kabi mashg'ulotlardan o'tishadi. Shuningdek, qizlar 2 kishilik guruh bo'lib ishlashadi: yonib ketgan tanklarda berkinishni, dushmanni yo'q qilish uchun avtomatdan otishni, otryadning qaytib ketishini bekitish uchun tutun hosil qilishni o'rganishadi.

Bundan tashqari, mazkur otryadda qizlar uchun yana bir mashaqqatli sinovlardan biri malakali toifani qo'lga kiritish uchun 52 daqiqa (erkaklar uchun –49 daqiqa) vaqt ichida umumiy 27 kg og'irlikdagi qurol-aslaha bilan 6 km masofani yugurib o'tish hisoblanadi.

Bo'linma a'zolarining so'zlariga ko'ra, ular uchun eng og'iri "jahannam haftaligi" deb nom olgan tayyorgarlik – psixologik va jismoniy chidamlilikni tekshirish, jumladan, holdan toydiruvchi va bir necha kun davom etuvchi, deyarli dam olishlarsiz hamda kam sonli ozuqa va suv bilan cheklangan marsh-brosoklar hisoblangan [7].

Polshada xotin-qizlar 1999-yilgacha faqat istisno holatlarda va alohida shartlar asosida harbiy xizmatga qabul qilinar edi. Ammo mamlakatning 2003-yil

11-sentabrdagi "Professional harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni va mudofaa vazirining 2004-yil 1-martdagi

"Professional harbiy xizmatga chaqirish tartibi to'g'risida"gi farmoyishi bilan qizlarni professional harbiy xizmatga jalb qilish va ularning Polsha armiyasida xizmat o'tash tartibi belgilab berilgan [6].

Mazkur hukumat hujjatlari talablariga muvofiq, mamlakatda 18 yoshdan

28 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar (oliy va o'rta ta'lim muassasalarining ma'lum mutaxassisliklar (tibbiyot, veterinariya, dengizchilik, aviatsiya, shuningdek, laboratoriya diagnostikasi, informatika, teleinformatika, radiologiya, psixologiya, navigatsiya va tarjima kabi yo'nalishlar) bo'yicha bitiruvchilari) hududlardagi harbiy komendaturalarda majburiy ro'yxatga olinadi. Polshalik qizlar o'z ixtiyori bilan xizmat qilish huquqiga ega bo'lib, ularni harbiy xizmatga chaqirish, xizmat o'tash va harbiy xizmatdan bo'shatish jarayoni erkaklarniki bilan bir xil.

Bugungi kunda harbiy xizmatchi ayollar Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi umumiy sonining 1,2 % ni tashkil etib, ular orasida 550 nafardan ziyod ofitserlar,

400 nafarga yaqin serjant va 60 nafardan ortiq oddiy askarlar tarkibi armiyada xizmatini o'tab kelishmoqda. Harbiy bilim yurtlarida esa 250 nafardan ortiq polshalik qizlar tahsil olganligi ta'kidlanmoqda [5].

Shu o'rinda Ukraina davlatidagi ayollar bo'linmasiga ham to'xtalib o'tsak, 2025-yilda mamlakat tarixida birinchi marta dronlar operatorlaridan (ko'ngillilardan) iborat "Santyago ordeni"



nomli ayollar bo‘linmasi tashkil etilgan bo‘lib, unda mudofaa kuchlari bilan hamkorlikda aviatsionlikdan ham foydalaniladi [3].

“Santyaگو ordeni” dronlar rotasi qo‘mondoni Igor Lusenkonig bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, dronlar bilan ishlash texnik savodxonlik, ehtiyotkorlik, aniqlik, asosiysi, muhandislik ko‘nikmalari va ijodiy taktik fikrlashni talab qiladi. Bundan tashqari, xotin-qizlar dronlar bo‘limiga bir necha bosqichdagi saralashlardan keyingina qabul qilinadi:

- nomzodlarning jangovar yaroqliligi aniqlanadi;
- qizlar o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etishadi;
- xavfsizlik xizmati organlari tomonidan nomzodlar o‘rganib tekshiriladi;
- bo‘linmaga qabul qilish bo‘yicha yakuniy qaror chiqariladi.

Saralash jarayonida qizlarning dronlarni qo‘llash sohasidagi tajriba va malakalari (dronlarni yoki shunga o‘xshash tizimlarni ishlatish, ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, harbiy xizmat o‘taganligi, elektronika va dasturlash yo‘nalishlarida faoliyat olib borganligi) ham inobatga olinadi.

Mazkur bo‘linmada hatto o‘rta ta‘lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchi qizlarini qurol bilan harakatlanish va granatalarni otishga o‘rgatuvchi kurslari ham mavjud.

Ta‘kidlash lozimki, Ukraina ayollarning harbiy bo‘linmalarini shakllantirish tajribasiga ega, ya‘ni

dastlabki ukrainalik ayollar bo‘linmasi Birinchi jahon urushidan oldin Ukraina o‘qotarlari tarkibidan tashkil etilgan edi.

Isroil – ayollarning harbiy bo‘ysunuvchanligi qonun bilan belgilab qo‘yilgan sanoqli davlatlardan biri hisoblanadi. 1959-yildan boshlab mamlakatda ikkala jins vakillari uchun majburiy harbiy xizmat qonun yo‘li bilan mustahkamlab berilgan. Isroil Mudofaa armiyasining ilk ayollar korpusi Ikkinchi jahon urushidan so‘ng

1948-yil 16-may kuni tuzilgan va uning birinchi qo‘mondoni polkovnik Mina Ben-Svi bo‘lgan. 1995-yilda Isroil Oliy sud qarori bilan ayollarga Dengiz floti va Harbiy havo kuchlarida xizmat qilish huquqi kafolatlangan edi. 2000-yilda esa xotin-qizlarning jangovar bo‘linmalarda xizmatni o‘tashga ruxsat beruvchi qonun qabul qilingan [10].

Isroil sobiq bosh vaziri David Ben-Gurion (1886-1973-yy.) aytganidek: “Isroil qizlarining harbiy xizmati yahudiylar davlatining asoslaridan biri hisoblanadi”. Dunyodagi eng kuchli armiyalar 20 taligi ro‘yxatiga kiruvchi Isroil armiyasi shaxsiy tarkibining uchdan birini ayollar tashkil etadi. Harbiy xizmatga 18 dan 24 yoshgacha bo‘lgan turmushga chiqmagan qizlar chaqiriladi, bunda birgina farq – yigitlar uchun armiyada xizmat davri 36 oyni, qizlar uchun 24 oyni tashkil etadi. Ammo xotin-qizlar uchun majburiy xizmat davri ularning yoshi va ijtimoiy mavqeiga qarab belgilanadi:

18 dan 19 yoshgacha – 24 oy;



20 yoshgacha – 12 oygacha;

20 yoshdan boshlab – ko'ngilli tarzda xohishiga qarab;

28 yoshdan boshlab – harbiy xizmatdan ozod etiladi.

Oilali va farzandli isroillik ayollar uchun harbiy xizmat muddati kamaytirilishi, ayrim hollarda (oliy ta'lim muassasasi talabalari, turmushga chiqishi, homiladorlik, farzandli bo'lishi, diniy maktablarda tahsil oluvchi yoki o'zini diniy mashg'ulotlarga to'liq bag'ishlagan va dindor oilalar qizlari o'z xohishiga ko'ra) esa harbiy xizmatdan ozod etilishi ham mumkin [13].

So'nggi vaqtlarda ayollar o'rtasida harbiy karyerani olib borishga intilish kuzatilmoqda. Mamlakatda harbiy ayollar bo'linmalarni mohirona boshqarishadi, polkovnik va hatto general unvonigacha ham yetib yuqori lavozimlarda xizmatini olib borishmoqda. Bu esa Isroilda ayollarga harbiy xizmat doirasida karyerani rivojlantirish imkoniyatini beradi hamda davlatning ijtimoiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, erkak va ayollarning teng huquqliligini mustahkamlashga sabab bo'ladi. Harbiy xizmat xotin-qizlarga komanda bo'lib birgalikda harakatlanishni o'rgatadi, ularning yetakchilik qobiliyatlarini shakllantiradi va mustaqilligini rivojlantiradi.

Isroil armiyasida xotin-qizlar uchun ko'plab bo'linmalar (piyoda, artilleriya, razvedka, aviatsiya va kibernetika qo'shinlari) mavjud, shuningdek, ular maxsus ayollar batalyonlari, chegara

qo'shinlari bo'linmalari singari jangovar qismlarda hamda antiterroristik operatsiyalar va razvedka bilan shug'ullanuvchi xizmatlarda ham xizmat o'tashlari mumkin.

Isroil davlatining janubiy chegaralari – Misr va Iordaniya bilan chegara hududlarini qo'riqlovchi hamda patrul xizmatini olib boruvchi "Karakal" batalyonining uchdan ikki qismini harbiy xizmatchi xotin-qizlar tashkil etib, ushbu batalyon 2004-yil tashkil etilgan. Ushbu batalyonga 26 yoshgacha Isroil fuqaroligi bor qizlar qabul qilinadi va ular mamlakat hududiga katta miqdordagi narkotik vositalarni olib o'tishga intilayotgan kontrabanda guruhlarini aniqlash, qo'lga olish yoxud yo'q qilish kabi vazifalarni bajaradilar. Ammo bo'linma a'zolariga qo'yiladigan yagona talab – bu oila qurmaslik va farzand ko'rmaslik [15].

Bundan tashqari, Isroil Harbiy havo kuchlarida 17 nafar uchuvchi ayollar bo'lgan – jangovar samolyotlar, jangovar va transport vertolyotlar uchuvchilari, jangovar va transport samolyotlar shturmanlari. Ammo mamlakat Harbiy havo kuchlari tarixida birinchi uchuvchi ayol Yael Rom-Finkelshteyn (1932-2006) bo'lib, u harbiy uchuvchilik kurslarni tugatgan va 7 ta rusumdagi samolyotlarda parvoz etgan, front chizig'ida jangovar operatsiyalarni amalga oshirgan. Xizmatdan so'ng nafaqaga chiqib ketgach, u fuqaro aviatsiyasi tarixida ham birinchi ayol uchuvchi bo'lib qolgan. Shuningdek, harbiy transport aviatsiyasi "B" eskadrilyasi komandiri o'rinsosari



lavozimini egallagan isroillik harbiy ayollardan birinchisi kapitan Yifat va jangovar vertolyotlar bort mexaniki bo'lgan ilk ayol Keren Tendler edi.

Shu kabi isroillik ofitser ayollarni Harbiy dengiz floti maxsus bo'linmalarida

(2 nafar g'avvoslar) va 401-zirhli tank brigadasi 52-batalyonida (tibbiyot xizmati boshlig'i t/x kapitani Marina Kaminskaya) ham uchratish mumkin [15].

Bundan tashqari, isroillik ayollar erkaklar bilan teng ravishda ularning roziliklari asosida rezerv xizmatga chaqirilishi mumkin. Rezerv xizmatga harbiy xizmatni o'tab bo'lgan ayollar o'zlarining harbiy mutaxassisligi bo'yicha qabul qilinadi. Ayollar uchun rezervda xizmat muddati 38 yoshgacha belgilangan bo'lib, ular shu davrga qadar o'z harbiy qismlarida bir yilda bir marotaba 6 haftalik yig'inlarda ishtirok etishadi.

AQSh armiyasida ayollar 1775–1783-yillarda mamlakat mustaqilligi uchun olib borilgan urush vaqtida josuslar sifatida ishtirok etishgan. 1861–1865-yillarda bo'lib o'tgan fuqarolar urushida 400 dan 750 nafargacha xotin-qizlar qatnashgan. Ularning barchasi o'zini erkak deya tanishtirgan va faqat shu yo'l orqali urushda ishtirok eta olishgan, biroq ularning ba'zilar fosh qilinib, qamoqqa jo'natilgan holatlar ham kuzatilgan.

Amerika armiyasida ayollar uchun tinchlik davrida harbiy xizmatni o'tash imkonini beruvchi "Ayollarning Qurolli

Kuchlar tarkibiga integratsiyasi to'g'risida"gi qonun 1948-yilda Kongress tomonidan qabul qilingan bo'lsa ham, harbiy akademiyalarda ayollar ilk bora 1970-yillardan o'qishni boshlashgan,

1992-yildan ularga harbiy uchuvchi bo'lishga, 1993-yilda esa harbiy dengiz kemalarida xizmat qilishga ruxsat berilgan. Bugungi kunda mamlakatda xotin-qizlar Amerika fuqaroligi mavjud bo'lganda, o'rta ta'limdan past bo'lmagan ma'lumotga ega bo'lganda, sog'lig'i va yoshiga ko'ra xizmatga yaroqli bo'lganida harbiy xizmatga qabul qilinadilar [8].

Faqat 2016-yildan boshlab barcha jangovar lavozimlar (quruqlikdagi qo'shinlar, dengiz floti, harbiy havo kuchlari, dengiz qo'shinlari korpusi va dengiz xavfsizligi kabi qo'shin turlarida) ayollar uchun ochiq deb e'lon qilingan.

Bugun AQSh armiyasida doimiy kuchlar tarkibida ko'ngilli tarzda xizmat qilayotgan ayollar armiyaning deyarli 14 % ni va rezervda 17 % ni tashkil etadi, ulardan faqat 6 % qo'mondonlik lavozimlarni (100 nafardan ortiq generallar va

50 ming nafardan ziyod ofitserlar) egallashmoqda. Xizmat o'tash shartnomasining eng kichik muddati 2 yil bo'lib, xohishga ko'ra muddat uzaytirilishi mumkin. Eng qizigi, ko'ngilli nomzodlarga qo'shin turini, mutaxassislikni va xizmat joyini tanlash huquqi taqdim etiladi. 1976-yildan buyon amerikalik ayollar AQSh Mudofaa vazirligining barcha oliy ta'lim



muassasalari va harbiy akademiyalariga o'qishga qabul qilinishiga ruxsat berilgan. Yana bir e'tiborli jihatlaridan biri shuki, amerikalik harbiy xizmatchi xotin-qizlar ko'proq harbiy aviatsiyani afzal ko'rib tanlashadi va ular mamlakatning harbiy havo kuchlari ofitserlarining 21 % ni tashkil etadi.

Bevosita jangovar harakatlarda ishtirok etish va maxsus operatsiyalar kuchlarida xizmat qilish amerikalik harbiy ayollarga taqiqlangan. Ammo harbiy xizmatda ma'lum cheklovlar bo'lsa ham, amerikalik harbiy xizmatchi ayollar orasida Iroq va Afg'onistonning muayyan front chiziqlari bo'lmagan hududlarda halok bo'lganlar (bugungi kungacha 140 nafardan ortig'i halok bo'lgan, 860 nafardan ziyodi jarohat olgan) qayd etilgan.

Integratsiya va irqchilik muammolari saqlangan bo'lishiga qaramay, Amerika Qurolli Kuchlari xotin-qizlar uchun xizmat o'tash imkoniyatlarini kengaytirishni davom ettirmoqda. AQShning sobiq mudofaa vaziri Leon Panetta (2011-2013 yy.) ta'kidlaganidek, "ayollar mamlakat himoyasi yo'lida armiyaga katta hissa qo'shib kelmoqda". 2012-yilda Pentagon ayollarning harbiy harakatlardagi ishtirokini yumshatishini e'lon qilgan va ularga front chizig'i yaqinida aloqachi, shifokor, radar operatori, mexanik bo'lib xizmat qilishga ruxsat etilgan [4].

Rossiyada ilk bor Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida faqat harbiy ayollardan iborat bo'lgan harbiy

bo'linmalar tuzilgan edi. Shu sababli mamlakat qurolli tuzilmalarida ayollar asosiy rol o'ynaydi va hozirda turli maxsus bo'linmalarda, jumladan dengiz qo'shinlari va motoo'qchi brigadalarda askar va matroslardan tortib to ofitsergacha bo'lgan ko'pgina lavozimlarda xizmatini o'tashmoqda. Bu yerda ayollar ko'ngilli tarzda saralash jarayonlaridan o'tgan holda xizmatga qabul qilinadilar.

Rossiya Qurolli Kuchlarining 10 % ni ayollar tashkil etadi (ulardan 1,5 % qo'mondonlik lavozimlarda, qolgan qismi esa shtab lavozimlarda – tibbiyot, moliya xizmati, aloqa qo'shinlari va b.). Rus armiyasida ayollar uchun alohida bo'linmalar mavjud emas, ammo ular uchun ma'lum jismoniy me'yorlar belgilangan bo'lib, umumiy qo'shinlarga jamlanadi va alohida kazarmalarga joylashtiriladi [9].

So'nggi vaqtlarda ko'pgina omillar (yuqori darajadagi ijtimoiy himoya, barqaror oylik maosh, ijtimoiy kafolatlar, xizmat turar joylariga ega bo'lish va sifatli tibbiy yordamni olish kabi imkoniyatlar) sababli rus ayollarining shartnoma bo'yicha xizmatga intilishi va harbiy xizmatchi ayollar sonining o'sishi kuzatilmoqda.

Hind ayollari 1888-yilda Britaniya hukmdorligi davrida hamshira bo'lib xizmatni boshlashgan, 1992-yildan esa armiyada tibbiyot bilan bog'liq bo'lmagan yo'nalishlarda xizmat qilish hamda ofitserlik lavozimlarni egallash imkoniyatini qo'lga kiritishgan. Buni



2007-yilda Liberiyaga yo'naltirilgan BMTning ilk ayollardan iborat tinchlikparvar kuchlari tarkibida 105 nafar hind ayollari bo'lganligi ham tasdiqlaydi [7].

Bugungi hind armiyasida ayollarning ulushi bor-yo'g'i 3 % ni tashkil etib, ular politsiyada va jangovar bo'lmagan bo'linmalarda yordamchi lavozimlarda – tibbiyot va logistik lavozimlarda xizmat qilishadi. Bu diyorda ayollarni Harbiy havo kuchlari (1,08 %) va Harbiy-dengiz flotida (6,5 %) ko'proq uchratish mumkin, ofitser unvonidagi harbiy xizmatchi ayollar soni esa 1000 nafardan oshadi.

Hind armiyasida ayollar sonining cheklanganligi bir nechta omillar bilan izohlanadi. Misol uchun, ilgari erkak va ayollar uchun xizmat shartnomasi shartlari turlicha bo'lgan. 2021-yil oktabr oyigacha harbiy ayollarning shartnomalari bor-yo'g'i 5 yil muddatgacha tuzilgan, bu muddatni uzaytirish ishlari esa qiyinchilik bilan amalga oshirilardi.

Hindiston Oliy sudi tomonidan chiqarilgan qarorga asosan hozirgi kunda ayollarning erkaklar bilan bir xil xizmat shartlariga ega bo'lish huquqlari bor. Biroq, bunday huquq faqat harbiy xizmatga yangi kelgan harbiy xizmatchilarga tegishli bo'lib, 15 yildan ko'p xizmat qilgan ayollar esa sog'lig'iga ko'ra xizmatni o'tashga yaroqsiz hisoblanadi.

2020-yilda Hindiston Oliy sudi ayollarning jangovar lavozimlarni

egallash huquqini berishni taklif qilgan. Ammo erkak harbiy xizmatchilar ushbu taklifga e'tiroz bildirib, o'z saflarida ayollarni qabul qilishga tayyor emasliklarini va bunday xizmat ayollarga "ayollik majburiyatlari"ni ado etishga to'sqinlik qilishi to'g'risida fikr bildirishgan.

Musulmon davlatlari orasida Pokistonda harbiy ayollar soni ko'pchilikni tashkil etib, 18 dan 30 yoshgacha qizlar ko'ngilli tarzda 9 oy muddatgacha harbiy xizmatni o'tashlari mumkin. Ayni vaqtda Pokiston Mudofaa vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda armiya qizlar soni 580 ming kishini tashkil etmoqda [8].

Pokistonlik harbiy ayollar uchun harbiy dengiz kuchlarida va jangovar harakatlarda ishtirok etish taqiqlanganligi uchun ular asosan tibbiyot va shtab lavozimlarga tayinlanadilar. Lekin mamlakatning ilk harbiy uchuvchi ayoli Aisha Faruk 2013-yilda qiruvchi samolyotda parvozini amalga oshirgan va jangovar vazifalarni bajargan. Bundan tashqari, pokistonlik harbiy ayollar BMTning tinchlikparvar missiyalarida hamda AQShning o'quv missiyalarida ham faoli ishtirok etishadi. [13]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ayollarning erkaklar bilan ijtimoiy tenglikka intilishi ularning jamiyatdagi roli keskin o'zgarishiga olib kelgan. An'anaviy erkaklar faoliyati deb hisoblanib kelingan ishlarda – siyosat, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, harbiy



xizmatda tobora ayollarning faol pozitsiyasi namoyon bo'lmogda. Dunyoning qudratli armiyalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya va texnik jihozlanish rivojlanishi sharoitlarida xotin-qizlarning harbiy xizmatga keng jalb etilish jarayoni jadallashmogda. Natijada ta'minot va hatto jangovar bo'linmalarda harbiy xizmatchi ayollar sonining oshishi, ularning kasbiy-malakaviy darajasi o'sishi kuzatilmogda. Ko'pgina davlatlarda ayollar aviatsiya bo'linmalari va dengiz qo'shinlardagi jangovar operatsiyalarda ishtirok etish huquqini ham qo'lga kiritishgan. Ammo

nozik xilqat egalariga suv osti kemalarida hamda dushman bilan bevosita jang qilishga mo'ljallangan, hayot uchun xavfli hisoblanuvchi va ortiqcha jismoniy yuklamalar talab etuvchi bo'linmalarda xizmat olib borish taqiqlangan. Shunga qaramay, so'nggi yillarda NATO singari yetakchi tashkilotlarning ishtirokchidavlatlari hamda qudratli armiyaga ega mamlakatlar tomonidan qurolli kuchlardagi harbiy ayollar imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning sonini oshirish rejalashtirilmogda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Зарубежное военное обозрение” Россия Федерациясининг ойлик ахборот-таҳлилий журнали, 2011. – №7.
2. Решетникова Е.В., Туринцева Е.А. “Женщина в армии”. Информационный гуманитарный портал “Знание. Понимание. Умение”, 2014. №2.
3. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015. №3.
4. <https://uza.uz>
5. <https://kun.uz>
6. <https://daryo.uz>
7. <https://ria.ru>
8. <https://vestikavkaza.ru>
9. <https://smotrim.ru>
10. <https://simpleisrael.ru>
11. <https://ru.wikipedia.org>
12. <https://voennoedelo.com>
13. <https://russia-israel.com>
14. <https://shaon.livejournal.com>
15. <https://concierge-israel.com>
16. <https://www.army-technology.com>
17. <https://rus.postimees.ee>